

## BOLALARDAGI AGRESSIYANING O‘Z KELAJAKLARIGA TA‘SIRI

**Saidova. N.I**

Nizomiy nomidagi TDPU “Amaliy psixologiya” kafedra o‘qituvchisi

**Boyqobilova. S.F**

Nizomiy nomidagi TDPU “Pedagogika va psixologiya” fakulteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Agressiya- bu odamlar, odamlar guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmui hisoblanadi. Yani bir shaxs bowqa bir shaxsga zarar yetkazishga urinishi mumkin hech bir sababsiz yoki biron narsa jismni buzishga urinishi mumkin.

**Kalitso‘zlar:** yosh bolalar, agressiya, o‘smirlar jahldorlik, psixik muammolar, buzgunchiliklar, kelajak, oila, bola, ruhiyat, tushkunlik.

“Agressiya” so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, so‘zma-so‘z “hujum” degan ma‘noni anglatadi. Shaxsga doir individual taraqqiyot samarasini hamda shaxslararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xususiyatlaridan biri aggressivlikdir. Bugungi kunda agressiya jamiyatning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bundan tashqari agressiya ulkan tortishish kuchi va yuqumlilik xususiyatiga ega hisoblanadi. Ko‘pchilik o‘zida aggressivlik yoqligini aytishadi ammo buni o‘z xarakterlarida isbotlab qo‘yishadi. Masalan juda tez asabiylashish, kichik narsa xodisalar uchun ham janjal qilish, buzishga urinish va bundan zavq olish vas hu kabilar. Bolalarda tajovuz kam uchraydi, lekin kattalar ham shunga o‘xshash xatti-harakatlarga duch kelishadi. Uning asosiy muammosi jamiyatda o‘rnatilgan me‘yorlarga keskin ziddir. Agressiv xatti-harakatlar boshqalarga psixologik noqulaylik tug‘diradi, ko‘pincha jismoniy, ma‘naviy va moddiy zarar

keltiradi? Agressiya asosan bolalikdan rivojlanib keladi. Bola asabiy, jahldor, o‘z aytganini qildiradigan, to‘g‘ri turgan narsa, o‘yinchoqlari buzadigan bo‘lishi mumkin. Bunga sabab oilaviy muhit bolishi mumkin, yani oiladagi doimiy janjallar, kelishmovchiliklar, ota onaning tinimsiz urushishlari va bolaga nisbatan yomon munosabatda bo‘lishlari, tinimsiz bolaga baqirish, urish, xaddan tashqari ko‘p taqiqlar qo‘yish, bolaga ham jismonan ham ruhan zarar yetkazish, Bolani o‘z xoliga qoymaslik. Bu vaqtda ota ona uzidagi agressiyani bolasiga nisbatan korsatishadi va buning oqibatida yosh bola ham agressiv bo‘lib qolishi mumkin. Agressiya ko‘pincha oddiy bolalarning normal o‘sishi va rivojlanishining bir qismidir va u ko‘pincha yosh bolalar va maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydi. Chaqaloqlar hali gapirishni va o‘zlarining noroziliklarini yoki istaklarini qanday ifoda etishni bilishmaydi, shuning uchun tajovuzkorlik ularni ifoda etishning yagona usuli hisoblanadi. Agar bolaning tajovuzkor harakatlari ma’lum darajada “normal” bo‘lsa, hali ham tajovuzkorlik hujumlariga javob berish va ularni to‘xtatishga harakat qilish kerak. 18 oylik bolada tajovuzkor harakat 4 yoshli bolada bo‘lgani kabi ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Agressiyaning oldini olish choralari ham har xil bo‘ladi, lekin ular bolaga uning harakatlari qabul qilinishi mumkin emasligini va uning his-tuyg‘ularini ifodalashning boshqa usullari mavjudligini ko‘rsatish, shuningdek, ushbu tajovuzkorlik hujumlarining takrorlanishining oldini olish uchun zarurdir. Agressiyani nazorat qilish uchun bolalar ota-onalarning faol yordamiga muhtoj. Yosh bolalarda tajovuzkor xatti-harakatlar bilan bog‘liq holda ko‘rilgan samarali choralar ularning keyingi ijtimoiy rivojlanishi va moslashishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolada arressiya vaqtida oldi olinmasa u tobora yillar sayin kuchayib boradi va bu uning kelajagiga salbiy tasir korsatishi mumkin. Ko‘pincha, ota-onalar 5-6 yoshli bolaning tajovuzkor xatti-harakatlarini payqashadi. Bu o‘zini turli yo‘llar bilan namoyon qilishi mumkin, masalan, haddan tashqari teginish, kattalar va bolalar bilan janjallashish tendentsiyasi va beparvolik. Bunday bolaning ota-onasining vazifasi uning tajovuzkorligining sababini tushunishi va uni bartaraf etishga urinishi lozim. Boladagi agressiya kattalarga nisbatan og‘ir kichadi chunki u ko‘pincha o‘zini tutib turmaydi, o‘zini qanday

boshqarishni bilmaydi yoki istamaydi. Ba’zi hollarda, tajovuzkor bola o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishga harakat qiladi, lekin hech narsa ishlamaydi. Narsalarni buzishni yaxshi ko‘radi, narsalarni, masalan, o‘yinchoqlarni buzish yoki yo‘q qilishdan zavqlanadi. Doimiy ravishda tengdoshlari va kattalar bilan tortishuvlarga kirishadi, so‘kinadi. So‘rov va ko‘rsatmalarni bajarishdan bosh tortadi, qoidalarni biladi, lekin ularga rioya qilishni xohlamaydi. U o‘z atrofidagi odamlarda salbiy reaksiyani: g‘azab, g‘azabni qo‘zg‘atishga qasddan urinib, g‘azablangan narsalarni qiladi. U xato va kamchiliklarni tan olishni bilmaydi, oxirigacha u o‘zini oqlamaguncha yoki aybni boshqalarga yuklamaydi. Kichkina bolaning g‘ayritabiiy xatti-harakatining ko‘p sabablarini uning muhitida izlash kerak. Shaxsning rivojlanishida bolalar o‘tib-ulg‘aygan muhit katta ahamiyatga ega. Bolalar o‘zlarining xulq-atvorini yaqin odamlarning, ya’ni ota-onalar va qarindoshlarning xatti-harakatlariga asoslanib shakllantiradilar. Kichkina bolada tajovuzkorlik namoyon bo‘lganda, bu xatti-harakatning sababi diqqatni jalb qilish bo‘lishi mumkin. Agar ota-onalar bola bilan etarlicha vaqt o‘tkazmasa, uning yutuqlari va muvaffaqiyatlariga befarq munosabatda bo‘lmasa, bu ko‘pincha bolalarda chuqur norozilik va natijada tajovuzni keltirib chiqaradi. Bolaga qanchalik kam e’tibor berilsa, u tajovuzkorlik belgilarini namoyon qila boshlaydi. E’tibor etishmasligi va ta’lim etishmasligi o‘rtasida aniq bog‘liqlik mavjud. Ehtimol, bolaga kattalar va tengdoshlar bilan o‘zini qanday tutish kerakligi tushuntirilmagandir? 5-6 yoshli bola hali jamiyatda o‘zini qanday tutish kerakligini tushunmaydi, agar ota-onasi unga yordam bermasa, u xatti-harakatlar modelini intuitiv ravishda tanlaydi va har doim ham buni to‘g‘ri qilmaydi. Yani masalan bolaga etibor bolmagana bola xarxasha qilib yoki baqirib ota ona etiborini o‘ziga qaratishga harakat qiladi va bu yol ish beradi. Shundan song bola barcha etiborni o‘ziga tortish uchun ham buzgunchilik, topolon qila boshlaydi. Bolaning bu xulq atvori uning kelajagiga juda katta salbiy tasir qilishi mumkin. Bola ulg‘aygan sari uning tajavuskor xulqi rivojlana boshlaydi va u tajavuskor katta odamga aylanib qoladi yani bu degani boladagi agressiya uning kelajagiga salbiy tasir korsatadi. U odam jahldor boshliq, jizzaki o‘g‘il, be’etibor er va mehrsiz ota yoki ona bolib qolishi mumkin. Bazi xollarda esa bu

agressiya yomon tarafga rivojlanib ketib o‘ta tajavuskorona bolishi mumkin. Yani u odamda o‘g‘ri, buzg‘unchi, ko‘cha bezorisi bolishi sababsiz kimnidir uradigan, unga tajavus qiladigan shaxsga aylanadi va bu qilgan ishlaridan zavq ola bishlaydi. Bunday shaxslar vaqtida toxtalib, uning ruhiy xolati bilan psixolog ishlamasa u insonning axvoli og‘irlashishi va bundan o‘ziga va atrofdagilarga katta zarar yetkazishi mokin.

### **XULOSA**

Xarbir insonda agressiyaning kichik bir korinisi bo‘ladi, kimdadir bolalikdagi travmalar, kimgadir o‘smirlikdagi nohush voqealar va kattalarda ham ortirma xolatlarda boladi. Yosh bola va o‘smir yoshdagi bolalarning agressivligini kuchayib ketishi ham yoki yuqolishi ham uning ota onasi va yaqinlariga bog‘liq. Agar boladagi agressivlik vaqtida oldi olinmasa bu uning kelajagiga tasir qiladi va koplal salbiy oqibatlariga olibkelishi mumkin. Boladagi agressiyani sezgan ota ona Bolani agressiya holatini yuqotish uchun harakat qilishi va Bolani psixolog ko‘rigiga olib borishi zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. O‘zbekstan Respublikasi Xaliq bilimlendiriw ministrliigi

A‘jiniyaz atindag‘i No‘kis ma‘mleketlik pedagogikaliq instituti

Pedagogika fakul‘teti

Pedagogika va psixologiya kafedrası

Assistent o‘qituvchi P. Adilov

«PSIXOKORREKTSIYA»

pa‘ni boyinsha oqiw metodikaliq kompleksi

2. <https://minikar.ru/uz/ezoterika/agressivnoe-povedenie-rebenka-5-let-agressivnyi-rebenok-cto/> .minikar.uz

3. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIIYASI. «Faylasuflar»

nashriyoti Toshkent – 2017